

PEDAGOGNING KASBIY MULOQOTI VA MUOMALA ODOBINI SHAKLLANISHINING MUHIM JARAYONLARI

Maxmudov Zafar Mardanovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedراسي assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglik kasbiga xos bo'lgan muloqot va muomala odobi hamda pedagogning talaba yoshlar bilan muloqot fikrlari bayon etilgan. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida o'qituvchi va o'quvchi, talaba o'rtasidagi muloqot, muomala madaniyati ham yangicha dunyoqarashlar asosida jamiyatda qabul qilinayotgan demokratik islohotlar asosida o'zgarib borayotgani ushbu maqolada o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: muloqot, muomala, ma'naviyat, yuksak ma'naviyat, odob, ahloq, hurmat, fazilat, tarbiya jarayoni.

IMPORTANT PROCESSES OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMMUNICATION AND TREATMENT ETIQUETTE OF AN EDUCATOR

Annotation: this article describes the etiquette of communication and treatment characteristic of the pedagogical profession and the thoughts of the Educator of communication with student youth. Today, the culture of communication, treatment between teacher and student, student in the field of education is also changing on the basis of democratic reforms that are being adopted in society on the basis of new worldviews, is expressed in this article.

Keywords: communication, treatment, spirituality, high spirituality, decency, morality, respect, virtue, upbringing process.

ВАЖНЫЕ ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ ПЕДАГОГА И ЭТИКЕТА ОБРАЩЕНИЯ

Аннотация: В этой статье излагается этика общения и обращения, характерная для педагогической профессии, а также идеи педагога по общению со студенческой молодежью. То, что сегодня в сфере образования меняется и культура общения, общения между учителем и учеником, учеником, а также демократические реформы, принимаемые в обществе на основе новых мировоззрений, нашло свое отражение в этой статье.

Ключевые слова: общение, обращение, духовность, высокая духовность, манеры, нравственность, уважение, добродетель, процесс воспитания.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida o'qituvchilarga katta e'tibor qaratilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha murabbiy o'qituvchilar har tomonlama iqtisodiy, ma'naviy qo'llab quvvatlanmoqda. Shunday ekan, avvalombor o'qituvchining ma'naviy qiyofasi uning muloqot madaniyatida ifodalanadi. U o'zining his -tuyg'usini, ichki olamini, orzu umidlarini muloqot jarayonida bayon etadi. Muloqot - kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shaklidir. Muloqot jarayonida kishining tashqi olami, jamiyatning turmush tarzi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ma'naviy hayotidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyoti ifodalanadi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablardan biri muloqot va muomala odobining yuksak darajada bo'lishi, talabalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir.

Pedagogik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olish, talabalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilash va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina auditoriyada mo'tadil psixologik iqlim o'rnatiladi, talabalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

Jamiyat a'zolarining o'zaro ijtimoiy munosabatlari, turmush sharoitlari o'zgarishi bilan ularning moddiy olam haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, dunyoqarashlari, odob va ahloq normalari ham o'zgarimoqda. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ham o'qituvchi va o'quvchi, talaba o'rtasidagi muloqot, muomala madaniyati ham yangicha dunyoqarashlar asosida jamiyatda qabul qilinayotgan demokratik islohotlar asosida o'zgarib bormoqda. Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biridir. U shaxslararo munosabatning muhim mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi shaxslararo muloqot rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir.

Pedagogik muomala bu -o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish uslublarining muayyan tizimidir.

Hamkorlik- ishtirokchilarning o'zaro axborot almashinuvi;

Turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomoni talabalar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarni tashkil etish;

Muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Pedagogik faoliyatda muomala,

birinchidan, o'quv faoliyatini yakkaxol bajarishning vositasi ekanligi;

ikkitinchidan, tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy - psixologik tizim ekanligi;

uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning uslubi ekanligi; to'rtinchidan, talaba individualligini takomillashtirish iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi;

beshinchidan, yakkaxol faoliyatning sub'yekt sifatida ro'yobga chiqishi.

Pedagogik muomala deganda o'qituvchi va talaba, o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi usuli va tizimi almashilib, uning mohiyati, o'zaro axborot almashish ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, o'zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi. Muomala jarayonida uni maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonun - qoidalar muhim ahamiyatga ega. Bu nazoratda 3 ta muhim ta'sir etish vositasi ishtirok etadi: ma'qullamaslik, qoralash va jazolash. Muomala jarayonida bir hatti-harakat, o'ylanmay bildirilgan fikr, ortiqcha imo-ishora odobsizlikni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala, fikr almashuv o'zining vazifasini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Pedagogik muomalada psixologik aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi talabaning huquq va majburiyatini jamoada, oilada bajaradigan roli nimadan iborat ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Demak, muloqot madaniyatiga, odobiga amal qilish kishini yuksaklik sari yetaklaydi, hayotda izzat-hurmatda bo'lishga sazovor etadi. Muomala odobi-inson ko'rki, insonga bo'lgan samimiy mehr-muruvvat mezonidir. Biz o'qituvchilar o'z shogirdlarimizga qanchalik samimiy bo'lsak, ular bizni shunchalik qadrlaydilar. Muomala odobi aslida "Assalomu alaykum, Vaalaykum assalom" so'zlaridan boshlanadi. Biz ota-onalar, tarbiyachi, murabbiylar ana shu salomlashish odobini qanchalik yosh avlodga singdirib, ko'nikma, malakaga aylantirsak, muomala madaniyati ham chiroyli chiqadi. Ustozning shogirdlar salomiga alik olmasligi uning loqaydligini ifodalaydi.

O'zbekistonda muomala odobining ziynati faqat samimiy salomlashishdagina emas, ayni vaqtda bir-birimizga sizlab murojaat qilishda hamdir.

Sharq madaniyati va an'analari ruhida ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar farzandlarga sizlab muomala qilsak bir-birimizga samimiy hurmat va ehtiromda bo'lamiz. Ta'lim-tarbiya borasida Sharq xalqlari qadimdan muomala madaniyatiga juda katta e'tibor berganlar. Bugungi kunimizda ham bu muammo o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Xalqimizning qadimgi urf-odatlarini, an'analari va muomala odobi hisoblangan merosini o'rganish mustaqillik madyaniyatini shakllantirishning eng asosiy shartlaridan biridir.

Shuni aytish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchi o'quvchilarga, talabalarga o'z fani bo'yicha asosiy vazifa bilim berish deb, hisoblaydilar ammo, ta'lim hayotga bog'lanmasa u tarbiyaviy asoslar bilan izohlanmasa, tinglovchilar ongiga kirib bormaydi. Ta'lim va tarbiyani milliy madaniyatdan ajratgan holda yo'lga qo'yish

insonlarni ajdodlar merosidan nasl-nasabidan uzoqlashtirishga olib keladi. Ayniqsa, o'z-o'zini anglashning shakllanmasligi milliy madaniy masalalar yuzasidan hech narsani bilmaslik milliy hudbinlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois biz yuqorida sanab o'tgan sifatlarni shakllantirishda hadislar, buyuk bobolarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, A. Navoiy kabi ko'plab buyuk zotlarning bilimdonligi, g'oyat halol va poklik haqida g'oyalari bugungi ijodkor o'qituvchilarimizga dasturul amal bo'lib kelmoqda.

Islom dinining muqaddas kitoblari - Qur'oni Karim ya Hadisi sharifda ta'kidlangan ota-onaga hurmat, mehr-muhabbat, e'zoz, moddiy va ma'naviy yordam, qarindosh urug'lar, do'st-birodarlarga oqibat haqidagi g'oyat qimmatli o'gitlar yosh avlod ongiga singib borsa, bundan jamiyatimizdagi ko'plab muammolar o'z-o'zidan yechilib boshlaydi, jamiyat a'zolarining yangicha dunyoqarashi shakllanadi va muloqot madaniyati ham yangicha tus oladi.

O'zbek xalqi muloqotida ham boshqa millatlar kabi maqto'v, erkalatish, ko'ngilni ko'tarish, ko'plab so'zlar va iboralar borki, ularni madaniyat darajasida o'rganib inson ruhiyatiga moslashtirib, muloqot qilsa doimo suhbatlar mazmunli, maqsadli, ijobiy samara beradi. Respublikamiz o'qituvchilari orasida o'z ishining ustasi, xalq o'qituvchisi, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi deb tan olingan, ota-onalar, yoshlar e'zozlab ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik bilan o'qituvchilik burchini halollik, go'zallik, haqiqat, odob-ahloq nurini singdira olganliklari, xush muomala bo'lganlari uchun ham bunday obro' va hurmatga erishganlar. Barkamol ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir ahloqiy me'yorlar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri o'quvchi-talabaga ishonch bilan unga nisbatan talablar birligidadir. Bu qoida pedagogik amaliyotda ko'p sinalgandir.

O'qituvchilar talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, ta'lim maskanlarida xushmuomalali o'qituvchilar bilan bir qatorda talabalarga bexuda do'q urib, baqirib muomala qiladigan o'qituvchilar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy ahloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydi. Bunday o'qituvchilar talabalar o'rtasida obro' orttira olmaydilar. O'qituvchi xarakterida qalban mehribonlik, talabchan bo'lishi shart. Bu uning muvafaqqiyatli ishlashining birinchi sharti. Dastlabki eng yuksak talablarni o'qituvchi o'ziga taqdim qilishi kerak, chunki, o'zingda yo'q narsani birovlardan talab qila olmaysan. Pedagog talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi bo'lishi ham lozim. Pedagogik jarayonlarda bo'lib turadigan keskinliklarni xolis qilish uchun tarbiyachiga hazil mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. "Quvnoq pedagog ho'mrayganidan ko'ra, yaxshiroq o'qitadi" deb, bekorga aytilmagan. Uning ko'lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do'stona piching - ijobiy emotsional holat yaratishga yordam beradi va o'quvchilarni o'zga vaziyatga kulgili tomondan qarashga imkoniyat beradi.

O'zbekona muomala odobi ayniqsa xotin-qizlarimizga nisbatan har tomonlama har qanday sharoitda ham qo'pol munosabatda bo'lmaslikni taqozo etadi. Shu bois Rasuli akrom "Tangri ayollar bilan yaxshi muomalada bo'lishlaringizni tavsiya etadi chunki, ular qizlaringiz, jufti halollaringiz, opa-singillaringizdir" deb ta'lim berganlar.

Muomala odobi yana shuni takozo etadiki, har bir kishi boshqalar tomonidan izzat-ikrom va hurmat qilishlarini istar ekan, u boshqalarning ham hurmatini joyiga qo'yishi kerak.

Xulosa sifatida biz ko'p yillik pedagogik tajribaga ega bo'lgan ustoz sifatida o'z kasbdoshlarimizga, shogirdlarimizga bugungi yoshlar bilan chiroyli muomalada bo'lib, ularga madaniy munosabatda bo'lishga da'vat qilaman, zero, yoshlar bizning kelajagimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent "O'zbekiston"-2017 yil.
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat. 2008 yil.
3. J.Xasanboyev va boshq. Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011 yil.
4. U.I.Inoyatov va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik. -Toshkent: TDPU - 2013 yil.
5. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob, Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012 yil.
6. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Omonova Mokhigul. (2024). PERSONALITY IN TEACHING THE MODULE OF LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY IN THE MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTION. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 2(1), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10595990>
7. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PRACTICAL CLASSES OF THE SUBJECT" LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY". Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 369–375. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10049518>
8. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). ABOUT SOME METHODS OF TEACHING LATIN IN MEDICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-amaliy Konferensiyasi, 1(10), 245–249. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10049492>
9. Makhmudov, Z. ., Tuychiyev, K., & Usmanov, S. . (2023). SOME OF THE MOST USED FORMS OF MEDICINE IN MEDICAL PRACTICE - THE USE OF

- TABLETS AND SOLUTIONS. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(13), 20–26. Извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/7225>
10. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Akramov Rustambek Ashraf o'g'li. (2024). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISH. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 3(9), 38–41. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/1524>
11. Maxmudov, Z. (2023). Lotin tili va tibbiy terminologiya darslarida yunon klinik va farmatsevtik atamalarining qo'llanilishi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 263-269.
12. Maxmudov, Z. M. (2022). Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganishda o'zbek tili grammatikasining o'rni. *Science and Education*, 3(11), 756-759.
13. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2023). LOTIN TILINING ZAMONAVIY TILLARGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA'SIRI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 132–136. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/288>
14. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 3), 23–27. Извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11503>
15. Maxmudov Zafar, & Normurodova Sohiba. (2023). KUNDALIK TURMUSHTA KENG QO'LLANILISHDA BO'LGAN SUYUQLIKLARNI IFODALOVCHI DORI SHAKLLARI HAQIDA CHET EL ILMIY NASHRLARIDAN OLINGAN FIKRLAR. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8035529>
16. Maxmudov, Z. M. Retsept yozishda duch kelinadigan ayrim muammolarning qonuniy yechimi va amalda qo'llash haqida ba'zi mulohazalar, "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi.
17. Zafar Mardanovich Maxmudov, & Bobur Salimovich Sharipov (2021). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI HAQIDA FIKRLAR. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 1028-1033. doi: 10.24412/2181-1385-2021-6-1028-1033
18. Maxmudov, Z., Sharipov, B., & Bo'riyev, D. (2023). TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Science and Innovation in the*

Education System, 2(1), 5–10. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ
<http://www.econferences.ru/index.php/sies/article/view/3158>

19. Omonova, M., & Makhmudov, Z. (2023). Modern signs of using the quince plant in folk medicine. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(4), 41-45.

20. Makhmudov Zafar Mardanovich, The place of problematic and heuristic methods in the process of teaching latin and medical terminology – PhilPapers <https://philpapers.org/rec/MARTPO-200>

21. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2024). DORIVOR VOSITALARI NOMENKLATURASINING TIPIK GURUHLARI VA ULARNING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(5), 480–487. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/10771>